XALQ DEPUTATLARI PESHKU TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 26 - fevral VI-77-28-2-39-K/24 Peshku tuman hokimligi

Peshku tumanidagi qabristonni qayta nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 10-martdagi yig‘ilish bayoni va 2024-yil 6-yanvardagi 2/2-109-sonli ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida” Qonuni 6-moddasi, “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli ““Geografik obektlarning nomlari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qaroriga asoslanib, xalq deputatlari Peshku tumani Kengashi

QAROR QILDI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 6-yanvardagi 119-01-sonli yig‘ilish bayoni hamda 2024-yil 6-yanvardagi 2/2-109-sonli ekspert xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi qayta nomlanadigan qabriston ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (I.Shokirov), Kadastrlar palatasi tuman filiali (R.Hojiyev), obodonlashtirish boshqarmasi (N.Kenjayev)ga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining o'rinbosari-Geografik obe'ktlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasi raisi o'rinbosari (A.Rajabov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi boshqaruv apparati axborot xizmati (F.Fayzullayev) va “Peshku Ovozi” gazetasi (X.Sharopova), mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta'minlansin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **V.Qahhorov**

Xalq deputatlari Peshku tuman
Kengashining
2024-yil 26-fevraldagi
VI-77-28-2-39-K/24-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi qayta nomlanadigan qabriston ro‘yxati

№	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog'lanishi (*joylashgan joyi*)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiya tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Navbahor MFY	Childuxtaron	Navbahor Childuxtaron	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq